

**ASTRONIMLARNING NOMINATIV XUSUSIYATLARI  
(AYRIM YULDUZ VA YULDUZ TURKUMLARI NOMLARI MISOLIDA)  
NOMINATIVE CHARACTERISTICS OF ASTRONOMERS  
(AS THE NAMES OF SOME STARS AND CONSTELLATIONS)  
НОМИНАТИВНАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА АСТРОНОМЕТОВ  
(КАК НАЗВАНИЯ НЕКОТОРЫХ ЗВЕЗД И СОЗВЕЗДИЙ)**

**Qurbonova Gavhar Xurramovna,**

Termiz davlat pedagogika instituti O‘zbek tili va adabiyoti kafedrası o‘qituvchisi,  
[qurbonovagavhar1@mail.com](mailto:qurbonovagavhar1@mail.com).

**Annotatsiya.** Ushbu ilmiy maqola astronomlarning nominativ xususiyatlari masalalariga bag‘ishlanadi. Osmon jismlari nomini bildiruvchi leksik birlikarning turkiy tillardagi nomlanish tamoyillari, vazifalari, xususiyatlari ko‘rib chiqiladi. Onomastikada astronom va kosmonim terminlari orasidagi farq izohlanadi.

**Kalit so‘zlar:** astronom, yulduz turkumlari, sayyoralar, osmon jismlari

**Abstract.** This scientific article is devoted to the issues of nominative characteristics of astronomers. The naming principles, functions, and characteristics of the lexical units denoting the names of celestial bodies in Turkic languages are considered. In onomastics, the difference between the terms astronomer and cosmonym is explained.

**Key words:** astronomer, constellations, planets, celestial bodies

**Аннотация:** бстрактный. Данная научная статья посвящена вопросам номинативной характеристики астрономов. Рассмотрены принципы именования, функции и характеристики лексических единиц, обозначающих названия небесных тел в тюркских языках. В ономастике объясняется разница между терминами астроном и космоним.

**Ключевые слова:** астроном, созвездия, планеты, небесные тела.

Atoqli otlar o‘z tabiatiga ko‘ra tilning g‘oyatda turg‘un, kam o‘zgaruvchan, o‘zga tillarga tarjimasiz beriladigan materialidir. Shu xususiyatiga ko‘ra atoqli otlar tarixiy, lisoniy va nutqiy jihatdan ilmiy tadqiqot uchun eng ishonchli daliliy vosita bo‘ladi

Shu jihatdan astronomik nomlar ham onomastik ko‘lamdagi lingvokulturologik tadqiqotlar ichida juda qimmatli material hisoblanadi, chunki ular onomastik nominatsiyalarning milliy xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi. Onomastikada astronomik nomlarni belgilash uchun ikkita raqobatdosh atama qo‘llanadi: **kosmonim (kosmonimika) va astronim (astronimika)**.

N.V.Podolskaya muallifligidagi “Словар русской ономастической терминологии” nomli lug‘atda **astronim** nomlarning bir ko‘rinishi, ma’lum bir samoviy jismning asl nomi, jumladan, yulduzlar, sayyoralar, kometalar, asteroidlar (planetoid), kosmonim esa kosmos zonasining tegishli nomi sifatida belgilab beriladi [1]. Bu atamalar boshqa rus tilshunosligi vakillarida turlicha uchraydi: V.A.Nikonov *kosmonimlar* atamasini afzal ko‘radi [2], Yu.Karpenko, M.E.Rut esa *astronimlarni* [3,4]. Rus lingvisti Beryozkin ham tungi yoritgichlar uchun kosmonim atamasini qo‘llaydi [5].

V.D.Bondaletov kosmonim, kosmonimika, astronim, astronimika atamalariga o‘z munosabatini bildirib [6: 98], onomastikaning bu qismi ayrim tadqiqotchilar asarlarida astronimika, boshqa tadqiqotlarda kosmonimika terminlari bilan yuritilayotganligi to‘g‘risida yozadi. Shu bilan birga, u har ikkala termini bir-biridan farqlash uchun N.V.Podolskaya lug‘atidagi ma’lumotlarni qiyoslab, unda osmon jismlari nomini o‘rganadigan bo‘lim ikki nom – kosmonimika va astronimika terminlari bilan nomlanganligini ta’kidlaydi [6: 198].

O‘zbek tilining izohli lug‘atiga murojaat qilsak, **astro** – (*yun. astron* – **yulduz**) qo‘shma so‘zlar tarkibidagi birinchi so‘z bo‘lib, yulduz va sayyoralarga aloqadorlikni bildiradi [7: 111], **onim** esa lingvistik lug‘atlardagi izohga ko‘ra **nom** demakdir.

Boshqa lug‘atlarda ham shunga o‘xshash ta’riflarga duch kelamiz [9].

Anglaganingizdek, astronimlar yulduz va sayyoralar nomi ekanligi ma’lum bo‘ladi.

O‘zbek tilshunosligida ham astronim va kosmonim terminlari izohiga nisbatan turlicha yondashuvlar va qarashlar bor: Masalan, tilshunos olim B.Yo‘ldoshev “O‘zbek onomastikasi masalalari” nomli uslubiy qo‘llanmasida kosmonim va

astronimlarga bir xil nazar bilan qaraydi va asosan kosmonim atamasi izohiga urg‘u beradi[8: 23].

E.Begmatov va N.Uluqovlar hammuallifligidagi lug‘atda ham astronomlar alohida olingan osmon jismlari, obyektlari – yulduzlar, sayyoralar, asteroidlar, kometalar kabilarni anglatuvchi atoqli otning bir turi sifatida qayd qilinadi[9: 18,19]. **Astronimika** atamasiga esa «onomastikaning samoviy jismlarning atoqli oti (astronimlar)ni o‘rganuvchi tarmog‘i» deb izoh berildi[9: 41]. Mualliflar kosmonim terminini ham – kosmik fazodan o‘rin olgan samoviy ob‘yektlar (kosmik fazo, galaktika, yulduzlar, sayyoralar va ular yuzasidagi tabiiy ob‘yektlar) ning atoqli oti deb ta‘rif berishadi[9: 41]. Ammo mazkur lug‘atda biror o‘rinda ham kosmonimika atamasining izohi keltirilmaydi.

Filologik nuqtai nazardan o‘zbek tilida osmon sferasi va undagi osmon jismlari nomlari kam tadqiq qilingan bo‘lsa-da, quyidagi yondashuvlar mavjud: *astronimlar* – X.Dadaboyev[10], Sh.Yoqubov[11], *samoviy yoritgichlar* – Z.Q.Yunusova[12], *kosmonim* – A.Primov[13], *kosmonim, astronim* – B.Yo‘ldoshev[8: 21] kabi.

Astronomik nomlar onomastika sohasida lingvistik-madaniy tadqiqotlar uchun qimmatli materialdir, chunki ular yulduzli osmon obyektlarini nomlashda namoyon bo‘ladigan onomastik nominatsiyaning milliy xususiyatlarini aniqlashga imkon beradi.

Ushbu maqolaning tadqiqot vazifasi o‘zbek astronomik nomlarini onomasiologik tahlil qilishdir.

Atoqli otlar nominativ-funksional xususiyatlariga ko‘ra o‘zaro farqlanuvchi, shu bilan birga, bir-biri bilan bog‘liq va o‘z navbatida biri ikkinchisiga qarama-qarshi lisoniy mavjudlikdir. Atoqli otlar yasaliş tamoyili jihatidan o‘zbek tili so‘z yasalişiga o‘xshasa-da, bunday otlarning hosil bo‘lishida ayrim o‘ziga xosliklar ham mavjud. Shulardan biri atoqli otlarning atoqli otlardan hosil bo‘lishidir. Bu hodisani apellyativ (turdosh ot) hamda boshqa so‘z turkumlaridan yuzaga keluvchi konversiya va derivativ usulda yasalgan atoqli otlardan ham farqlash lozim. Onomastik tadqiqotlarda so‘z yasalişining leksik-semantik usulini onomastik konversiya deb

yuritilmoqda[14: 22]. “Onomastik konversiya tildagi mavjud leksemalarning hech qanday o‘zgarishsiz yoki sezilarsiz holdagi o‘zgarishlar bilan atoqli ot vazifasiga ko‘chishidir”[15: 115].

Astronimlarning nominativ hususiyatlari tahlilida nomlarning yasalishi, paydo bo‘lishi, tuzilishi, etimologiyasi kabilarni ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq.

Yulduzlar koinotning ming yillik sirlaridan ogoh etadi. Qadim Sharqda sayyohlar, savdogarlar kunduzi jazirama oftobdan saqlanib, salqin tunda yo‘lga chiqqanlarida yulduzlar ularga yo‘l ko‘rsatar, vaqtning qaysi mahali kechayotganidan darak berar, qolaversa, yulduzlar osmoni ularni go‘zalligi, jozibasi va sirliligi bilan o‘ziga rom qilardi. Kishilar osmonni kuzatib, yil fasllarining almashinish vaqtlarini aniq biladigan bo‘ldilar. Ular osmon hodisalaridan voqif bo‘lganlari sayin hayratga tushishar, bu hodisalarning sabablarini bilishga intilar edilar. Va ular shu o‘rinda o‘zlarining tasavvurlari doirasida ularni talqin qilar va ularning shakli, yorug‘ligi, qaysi vaqtda ko‘rinishiga qarab nomlar edilar.

Astronimlarni tasniflash juda qiyin vazifadir, chunki ular nomlanish tamoyillari va usullari jihatidan bir hil emas. Biz dastlab yulduzlarlarining onomasiologik tasnifini qilishga hatakat qilamiz, lekin buni yakuniy va birlamchi deb da‘vo qilishdan yiroqmiz. Ayni tasnif uchun yulduzlar haritasidagi bir qancha yulduz tahlil qilindi.

**Shulardan biri qadimgi turkiy mifologiya bilan bog‘liq bo‘lgan va mifonimlar va teonimlardan transonimizatsiya<sup>4</sup> natijasida hosil bo‘lgan nomlardir.**

Astral afsonalar – «Astro» osmon yoritqichlari va hodisalariga ham da u bilan bog‘liq sehrgarlik xatti-harakatlariga sig‘inishni anglatadi. Astral e‘tiqodlar qadimda ikki daryo oralig‘i – Mesopotamiya, Misr va Hindistonda keng tarqalgan. Bu mamlakatlardagi ibodatxonalar rasadxona (observatoriya) vazifasini ham bajarib,

<sup>4</sup> Bu hodisa rus tilshunosligida “transonimizatsiya – nomning bir turdan boshqa tur nomiga o‘tishi”, – deb ko‘rsatilgan. Manba: Подольская Н.В. Словар русской ономастической терминологии. М.: 1978. – С. 152-153; Transonimizatsiya tilda atoqli otlardan atoqli ot hosil qilishning alohida bir usuli bo‘lib, bunday usulda yuzaga kelgan hosilalar apellyativ leksikadan yasalgan nomlardan ham, derivatsion usulda hosil qilingan nomlardan ham farq qiladi. Manba: Qilichev B. Onomastika. Buxoro: 2023. – B. 26.

osmon hodisalarini kuzatishda katta rol o‘ynagan. Astral afsonalar asosida astrologiya, folbinlik va karomat qilish vujudga kelgan[7: 466].

Har bir nomning orqasida turkiy xalqlarga yaxshi ma‘lum bo‘lgan qadimiy afsonalar bor.

Qadimdan osmon jismlari, yulduzlar jonli deb tushunilgan<sup>5</sup>. Turkiy xalqlarning qadim ajdodlari osmon yoritqichlarining mifologik tabiatini muqaddaslashtirib, samoviy kultlar madadiga umid bog‘lab yashaganlar.

Masalan, *Yetagan yulduzlarini* avval zaminda yashab, so‘ngra ko‘kka ko‘tarilgan homiy kuchlar timsoli deb tasavvur qilishdan kelib chiqqan astral kultlar bu yulduz turkumi haqidagi mifologik tasavvurlar tizimini shakllantirgan. *Yetagan* yulduz haqidagi arxaik miflar syujetining takomillashishi va diffuziyalanishi natijasida turkiy va mo‘g‘ul-buryat xalqlari folklorida *yetti homiy* obrazi yaratilgan. Epik homiylik obrazining badiiy evolyutsiyasi jarayonida arxaik mif syujetining eng muhim halqalaridan biri – bu asotiriy personajlarning yulduz bilan bog‘liqligi motivi unutilib ketgan. Natijada kosmogonik mif personaji sifatida shakllangan *yetti homiy* obrazi epik qahramonning mushkulini oson qiladigan g‘ayrioddiy ko‘makchilar tarzida tasvirlana boshlagan. Ertak va dostonlarda uchraydigan g‘ayrioddiy ko‘makchilar soni aynan yettita bo‘lmasa-da, ularning epik syujet rivoji davomida bajaradigan badiiy vazifalari talqinida kosmogonik mif syujetiga xos an‘anaviy yettilik strukturasi saqlanib qolgan. Demak, turkiy xalqlar folklorining epik janrlarida ko‘p uchraydigan yetti bahodir, yetti aka-uka, yetti homiy, yetti ko‘makchi kabi an‘anaviy obrazlarning genetik asoslari qadimgi astral miflarga borib taqaladi.

M.Jo‘raevning «O‘zbek xalq samoviy afsonalari»[16] nomli monografiyasida samo yoritqichlari, tabiat hodisalari, olam va zaminning yaratilishi to‘g‘risidagi samoviy afsonalar turkumining tarixiy asoslari, samoviy mifologiyaga munosabati, mavzu doirasi, syujet tizimini tashkil etuvchi asosiy motivlari va obrazlar tarkibi

<sup>5</sup> Халқимизда осмонда ҳар кимнинг “ўз” юлдузи бор деб ирим қилинади. Шу юлдузнинг одам жони билан алоқадорлиги сифатида астромифологик қарашлар алоҳида ўрганилиши зарур бўлган масаладир (бу ҳақда қаранг: Жураев М. Юлдуз учини билан боғлиқ мифологик қарашлар // Ўзбек тили ва адабиёти, – Тошкент; 1996. – 2-сон. – В. 39-43.

tadqiq qilingan bo‘lib, unda Yetagan, Temirqoziq, Oqbo‘zot, Ko‘kbo‘zot, Tarozi, Hulkar, Qambar yulduzi kabi yulduz va yulduz turkumlari, Cho‘lpon planetasi va Somon yo‘li bilan bog‘liq samoviy afsonalar syujetining tarixiy evolyutsiyasi qiyosiy-tipologik nuqtai nazardan ilk bor monografik planda o‘rganiladi.

Onomast Yu.A.Karpenkning fikricha, mifologiya eski astronomik nomlarning ma‘nosini o‘rganishda yordam berishdan ko‘ra, ko‘proq xalaqit beradi. Voqelikda sodir bo‘lgan ijtimoiy-tarixiy holatlar osmon nomlanishi uchun rivoyatlarga nisbatan ko‘proq ma‘no kashf etgan[3: 5], degan fikrni ilgari suradi.

Umuman, Markaziy Osiyo xalqlari mifologiyasi asosida nomlangan osmon jismlari yuqoridagi kabi nomlanish xususiyati asosida tarkib topgan. Bahrom (Mars), Nohid (Venera), Tishtiriya (Sirius), Shams (Quyosh), Temir qoziq, Oltin ustun, Yetagan, Mehr, Nohid, Tir, Yetti og‘ayni, Opa-singillar (Pleyada yulduz turkumi), Egizaklar kabi yulduz va yulduz turkumlari nomlari shunday xususiyatlar asosida yuzaga kelgan

Samoning shimoliy yarim sharida cho‘mich shaklida ko‘rinuvchi yettita yorug‘ yulduz haqida ham har xil afsonalar yaratilgan. O‘zbek tilida *Yetti og‘ayni*, *Yetti qaroqchi*, *Yetagan*, *Katta ayiq*, *Cho‘mich* kabi nomlar bilan, arabcha *Dubbi akbar* deb ataluvchi bu yulduz to‘pida aslida yuzdan ortiq yulduzlar aniqlangan bo‘lsa-da, bu yulduz o‘zining yettita yulduzi bilan mashhurdir. Xalqimizda *“Yetti qaroqchini tanigan yetti tunda adashmas”* maqolining mavjudligi xalq hayotida yulduzlar harakatining nechog‘lik ahamiyatga molik ekanligini ko‘rsatadi. *Yetagan* so‘zining ma‘nosiga kelsak, manbalarda turlicha: *Yetigen // Yetagan // Jetagan // Yitigen* variantlar keng tarqalgan bo‘lib, “yetti” raqami ma‘nosini bildiruvchi “yete” umumturkiy o‘zagiga “-gen”, “-gan” ko‘plik qo‘shimchasini qo‘shish bilan hosil bo‘lgan[17:21]. Boshqa bir tadqiqotda esa *Yetagan* “yetti” asosga “gan” shaklining qo‘shilishi, “gan” lug‘atlarda “kan” – *xon*, *xudo* shaklida keltirilganligi izohlanadi[19: 167] (O‘zimiz ham lug‘atdagi izohlarga qaraganimizda, “kan” ning 6 xil ma‘nosi izohlanganligini koramiz. Shulardan biri “xon” dir[18:104,105]. Bizningcha, keying tahlil leksik-grammatik qoidalarga yaqin).

O‘rta Osiyo turkiy xalqlari Yetagan yulduzlarining tuni bilan bedor bo‘lishlarini qaroqchilarning hayotiga o‘xshatib tasvirlashga harakat qilishgan. Natijada Yetagan – Yetti qaroqchi haqidagi ko‘plab samoviy afsonalar paydo bo‘lgan. Shulardan biri *Yetti qaroqchi podshoning go‘zal qizini o‘g‘rilardan qo‘riqlab turuvchi yetti qo‘riqchi emish. Ular tundan to tonggacha podshoning qiziga ko‘z-quloq bo‘lib turishar ekan.*

Yulduzlarni avval zaminda yashab, so‘ng osmonga chiqib, yulduzga aylangan odamlar sifatida tasvirlash dunyo xalqlari astral miflarining eng muhim xususiyatlaridan biridir[20: 26]. O‘zbek folklorida ham bu holatni ko‘rish mumkin. *Qizilqum sahrosidagi bir podshoh va uning yetti o‘g‘li, bir qizining borligi, qizning dushmanlar tomonidan o‘ldirilishi, yigitlarning faryodidan tangri ularni yulduzlarga aylantirib qo‘yganligi* haqidagi afsonalar ham mavjud[20: 27].

O‘zbek afsona va ertaklarida *Temir qoziq, Oltin qoziq, Qutb yulduzi* deb nomlanuvchi yulduz haqida ham mifologik tasavvurlar uchraydi.

*Temir qoziq, Oltin qoziq, Qutb yulduzi* – Kichik Ayiq yulduz turkumining eng ravshan yulduzi. Osmonda Shimoliy qutbga eng yaqin joylashgan yulduz. Osmondagi barcha yulduzlar Shimoliy qutb atrofida Sharqdan G‘arbga tomon ko‘rinma harakatlanib (Yer o‘z o‘qi atrofida G‘arbdan Sharqqa tomon aylanishi tufayli), qutb atrofida konsentrik aylanalar chizadi. Temir qoziq yulduzi qutbga juda yaqin bo‘lganidan yulduzlar go‘yo uning atrofida aylanadigandek va bunda u qo‘zg‘almay turgandek tuyuladi. Shu bois unga Temir qoziq (Oltin qoziq, Qutb yulduzi) deb nom berilgan. Temir qoziqni Katta Ayiq (Yetti Qaroqchi) yulduz turkumi “*cho‘michi*” yoki “*barkash*” orqali oson topish mumkin.

O‘tmishda tungi salqindan foydalanib manziliga oshiqqan karvonlar yulduzlardan kompas sifatida foydalanganlar, shunga o‘xshash olis va mashaqqatli cho‘lu biyobonlarni kezib, adashmay yo‘l topganlar. Tajribali sarbonlar tunda yetti qaroqchi yoki temir qoziq yulduziga qarab dunyo tomonlarini aniq belgilaganlar va karvon yetib borishi mo‘ljallangan manzil qayerdaligini aniqlab, o‘sha tomonga yo‘l boshlaganlar.

Turkiy xalqning samoviy mifologiyasida **Temir qoziq** yulduzi nafaqat osmon, balki butun olamning qoq o‘rtasi deb tasavvur qilingan. IX asrning buyuk tilshunosi Mahmud Qoshg‘ariy bu haqda *“Qozunuq-qoziq” deb izoh beradi*. Qutb yulduzini *“Temir qozunuq”* deyish ham shundandir. Bizda esa *“Temir qoziq”* demakdir. Chunki osmon buning ustida aylanadi. Yoqutlar qutb yulduzini *“Temir yog‘och”* ga o‘xshatadilar. *Naql qilinishicha, Yer bilan Osmon yaratilib bir-biridan asta uzoqlashayotgan paytda zaminda bir temir daraxt o‘sib chiqibdi. Ana shu daraxtning uchi tekkan joy Temir qoziq yulduzi emish.*

*Temir qoziq* yulduzining boshqa osmon jismlariga nisbatan o‘zgarmas, ya’ni harakatsiz bo‘lishining sababi, qutb yulduzi yerning aylanish o‘qiga juda yaqin joylashganida. Shuning uchun ham Yer o‘z o‘qi atrofida aylanishi tufayli bo‘ladigan vaqt aylanasi doirasida zaminda turib kuzatayotgan kishining ko‘ziga o‘zgarmas nuqtaday bo‘lib ko‘rinadi. Aslida esa osmondagi boshqa samoviy jismlar, yulduz va sayyoralar singari Temir qoziq yulduzi ham misli ko‘rinmagan fazoviy kenglikda harakat qiladi. Adabiy tilimizda ham *Temir qoziqning Qutb* nomi ishlatiladi.

Bu yulduz haqida shunday rivoyat bor: *Qadim-qadim zamonda bir chol bo‘lgan ekan. Cholning bir emas, yettita o‘g‘li bor ekan. Yetti o‘g‘li yetti azamatga aylanibdi. Bir kuni chol bolalarini oldiga chaqiribdi-da, - Bolalarim, - debdi, - endi men qarib qoldim. Sizlar katta bo‘ldinglar. Bitta shartim bor: halol bo‘linglar, haqgo‘y bo‘linglar. Shu bugundan boshlab o‘z tirikchiligingi o‘zinglar qilinglar. Otaning nasihatiga amal qilib, har qaysisi qo‘lidan kelgancha mehnat qila boshlabdi. Ammo boyib ketishdan hech darak yo‘qmish. Shunda yetti og‘aynining hammasiyam otaning nasihatini esdan chiqaribdi. Hammasi birin-ketin qaroqchiga aylanibdi. Xullas, oradan qancha oy, qancha yil o‘tganidan keyin yetti og‘ayni tag‘in keksa otaning oldiga yetib kelishibdi va Yetti o‘g‘ilning hammasi bir-biriga gal bermay, dunyoning adolatsizligini, o‘zlarining omadsizligini aytib yig‘lab-siqtashibdi. Ota bilibdiki, yetti og‘aynining hech biri to‘g‘ri yo‘ldan yurmagan. – O‘limdan boshqa hamma narsaga chora bor. Shunday debdi-da, qo‘ynidan chiroyli oltin qoziq chiqazibdi. - Yettovingizni ham baravar yaxshi ko‘raman. Ammo aytib qo‘yay: bu xazina nuqul*



haq ish qilgan, pok odam qo‘liga tegadi. – Chol shundoq deb oltin qoziqni osmon peshtoqiga qoqib qo‘yibdi. O‘sha zahoti o‘zi ham olamdan o‘tibdi. Yetti og‘ayni qaroqchi emasmi, hammasi baravariga oltin qoziqqa tashlanibdi. Lekin bittasining ham bo‘yi etmabdi. O‘shandan buyon yetti qaroqchi oltin qoziq atrofida haliyam charx urib aylanarmish-u bittasiyam ega bo‘lolmasmish.<sup>6</sup>

**Somon yo‘li** yulduz turkumining etimologiyasi qiziq. Galileo Galiley teleskopik qurilma orqali uning son-sanoqsiz yulduzlardan iborat ekanligini va rangi sut rangiga o‘xshashligini aniqladi. Umuman olganda, Somon yo‘li yulduz turkumi qadimgi olimlarga allaqachon tanish edi. Masalan, VII asrda yashagan arman matematigi, kosmografi va faylasufi Anani Shirakatsi o‘z yozuvlarida qadimgi davrlarning ba’zi mualliflari bu yulduz turkumini *Quyoshning eski yo‘li*, boshqalari uni *Persefon pardasi* deb ataganligini ta’kidlaydi; boshqalarga ko‘ra, Gerkules bu yo‘l bo‘ylab Gerion podasiga olib bordi; Boshqalar esa bu Heraning (Aramazning xotini) ko‘kragidan to‘kilgan sut, deb da’vo qiladilar. Qadimgi armanlar quyidagi versiyaga amal qilishadi: qishda Vahan Barshaamdan somonni o‘g‘irlagan, aynan shu yo‘lda somon tushib ketgan. Xristianlar ham bu yulduz turkumini diniy g‘oyalar bilan bog‘lashadi. O‘liklarning ruhlari bu yo‘l bo‘ylab osmonga ko‘tariladi yoki aksincha, qaytib keladi, degan gipoteza mavjud. Somon yo‘lini *Iso alayhissalomning yo‘li*, *Bibi Maryam yo‘li*, *Avliyo Pyotr yo‘li*, *Quddusga olib boradigan yo‘l*, *Avliyo Jeyms yo‘li*, *jannat yo‘li* deb ham atashadi. Turkiy tillarning ko‘pchiligida Somon yo‘li yulduz turkumining nomi qush bilan bog‘liq: boshqirdlar orasida – *Qo‘sh yo‘li*, qozoqlarda – *Torna yule*, qirg‘izlarda – *Qyr kazzary yule* (Yovvoyi qushlar yo‘li), tatarlarda – *Kiek kaz yule* (Yovvoyi qushlar yo‘li) va boshqalar. “Qush yo‘li” deb atalishiga sabab, qushlarning shu yo‘l bilan kirib chiqishi deb tahmin qilinadi.

O‘rta Osiyoda uni *Somon yo‘li* deb atashadi. Vengriya, Bukovina, Moldovada lo‘lilar somonni o‘g‘irlagan deb hisoblashadi, shuning uchun yulduz turkumini : “*Lo‘li yo‘li*” deb atashgan. Mo‘g‘ul xalqlari Somon yo‘lini osmonning qulab tushgan qismi deb atashadi. Chukotka aholisi orasida *changli daryo*, *Kumush daryo*, *Samoviy*

<sup>6</sup> O‘tkir Hoshimov. Uzun kechalar. ZIYO NASHR Toshkent 2019. – B.57.

*daryo* nomlari keng tarqalgan; Sharqiy Afrikada *Yulduzli dengiz* deb atalgan. Kavkaz xalqlari orasida yulduz turkumi nomi an’anaviy ravishda hayvonot dunyosi bilan bog‘langan: *Karvon yo‘li*, *Poda yo‘li* va boshqalar. Chechenlar uni *ayiq yo‘li*, gruzinlar *qo‘zilar sakrab turadigan joy* deb atashadi..

Yulduzli osmonni kuzatsangiz, *Somon yo‘li* - osmon sferasini o‘rab turgan va oysiz tunlarda aniq ko‘rinadigan kumush rangli tumanli chiziq. Qadimgi yunonlar bu guruhning ko‘rinishini quyidagicha izohlashgan. *Zevsning buyrug‘iga ko‘ra, ma‘buda suti chaqaloqni o‘lmas qilish uchun Uxlayotgan Geraning ko‘kragiga o‘lik ayoldan tug‘ilgan o‘g‘li Gerkulesni olib kelishdi. Biroq, uyg‘ongan Hera yangi tug‘ilgan chaqaloqni keskin itarib yubordi. Gerkules o‘lmas bo‘lmadi va ilohiy ko‘krakdan sachragan sut osmonda yorqin oq iz qoldirdi* [3: 6].

O‘zbek afsonalarida esa *Somon yo‘li* xayoliy qahramonning boshi osmonga tekkanda hosil bo‘lgan sidiriy, aravadan to‘kilgan somonning izi deb tasvirlanadi[21: 35-41].

Ammo katta hududda “*Somon yo‘li*” deb nomlangani manbalardan ma’lum.

*Somon yo‘lining* nomlari haqida gapirganda, biz *Galaktika* so‘zini umuman eslatmadik. Va bu tasodif emas. *Galaktika* nomi yunoncha “*Somon yo‘li*” so‘zidan (“sutli doira”) olingan bo‘lib, asrlar davomida astronomlar tomonidan *Somon yo‘li* nomining sinonimi sifatida ishlatilgan.

Maqola so‘ngida shuni aytish lozimki, osmon jismlariga turli tillarda turlicha nomlansa-da, ma’no-mazmun jihatdan qadimiy o‘xshash afsonalar ildiziga borib taqaladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Подольская Н.В. Словарь русской ономастической терминологии. М.: Наука, 1988.
2. Никонов В.А. Имя и общество. Москва. 1974.
3. Карпенко Ю. Названия звездного неба. – Москва: Наука, 1981.
4. Рут М.Е. Образная номинация в русском языке. Екатеринбург. 1992.
5. Берёзкин Ю.Е. Рождение звездного неба. – Санкт Петербург. 2017.

6. Бондалетов В.Д. Русская ономастика. – М.: Просвещение, 1983.
7. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 1-жилд. Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”, 2006.
8. Ёлдошев Б. Ўзбек ономастикаси масалалари. – Самарқанд. 2011.
9. Бегматов Э., Улуқов Н. Ўзбек ономастикаси терминларининг изоҳли луғати. – Наманган. 2006.
10. Дадабоев Х. Астрономик терминлар тарихидан // Ўзбек тили терминологияси ва унинг перспективалари. Тошкент: Фан, 1996.
11. Ёқубов Ш. *Навоий асарлари ономастикаси*: Филол. фан. ном. дисс...автореферати. Тошкент, 1994.
12. Юнусова З.Қ. Ўзбек тилида луғавий микросистеманинг таркиби ва ривожланиши (Самовий ёритгичлар луғавий гуруҳи асосида): Филол.фан. номз... дисс. – Тошкент, 2004. – 140 б
13. Примов А.И. Ўзбек тили космонимларининг лисоний хусусиятлари: Филол. фан. номз... дисс. – Тошкент, 2009.
14. Qilichev V. Onomastika. O‘quv qo‘llanma. – Buxoro. 2023.
15. Суперанская А.В. Общая теория имени собственного. М.: 1973.
16. Жўраев М. Ўзбек халқ самовий афсоналарининг тарихий асослари: Филол. фан. док... дисс. – Тошкент, 1996.
17. Жўраев М. Ўзбек фольклорида астрал мифлар типологияси // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2021. – № 2.
18. Радлов.В.В. Опыт словаря тюркских наречий. Том.II. Ч. 1.
19. Примов А. “Етти кароқчи ” юлдуз туркумининг номланиши // Адабиёт кўзгуси. – Тошкент, 2002. – № 7.
20. Жўраев М. Ўзбек фольклорида астрал мифлар типологияси // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2021. – № 2.
21. Жўраев М. Сомон йўли ҳақидаги ўзбек халқ афсоналарининг мифологик асослари // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1996. №1.

22. Satvoldieva, U. D. (2021). Axiological Characteristics Of English, Uzbek And Russian Phraseological Units. *The American Journal of Social Science and Education Innovations*, 3(06), 40-45.

23. Satvoldieva, U. D. (2020). A typological analysis of body parts names in English as part of somatic phraseology. *Проблемы современной науки и образования*, (2 (147)), 32-34.

24. Ubaydullaeva, D. (2022). PROBLEMS OF DESCRIPTION, CLASSIFICATION AND METATALOGY OF COMPLEX SENTENCES IN MODERN LINGUISTICS. *Science and Innovation*, 1(6), 560-564.